

**QASHQADARYODAGI ODINA MASJIDI TARIXIY – MADANIY  
OBIDA SIFATIDA**

**To'xtayeva Sevinch Ural qizi**  
*Qarshi Davlat Universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatida joylashgan qadimiy Odina masjidining tarixi, me'moriy xususiyatlari , diniy-ma'daniy ahmiyati va bugungi holati haqida ma'lumot berilgan. Masjid o'z davrida nafaqat ibodat maskani , balki ilm- ma'rifat tarqatilgan muqaddas makon sifatida faoliyat yuritilgan. Maqola O'zbekistonning diniy merosini chuqur o'rghanish va uni asrab avaylash zarurligiga urg'u beradi.*

**Kalit so'zlar:** *Odina masjidi, tarixiy obida , ilm ma'rifat, ibodat maskani, madrasa, fiqh, Mirzo Ulug'bek , Qur'on Karim oyatlari, Amir Temur, tarix.*

Qashqadaryo viloyati o'zining boy tarixiy merosi va islomiy madaniyat taraqqiyotidagi muhim o'rni bilan ajralib turadi . abu hududda joylashgan qadimiy Odina masjidi esa , o'ziga xos me'moriy tuzilishi va diniy – ma'naviy qadriyati bilan ajdodlarimizning manaviy olamidan darak beradi . Masjid uzoq davrlar davomida xalq ibodati , diniy ta'lim va jamiyatning ruhiy markazi bo'lib xizmat qilgan.

Odina Masjidi XVI-XVII asrlarga oid tarixiy obida sifatida qaraladi . “ Odina” atamasi arabcha “ad-din” ( ya’ni din) so’zidan kelib chiqqan bo’lish ehtimol, ayrim tadqiqotchilar uni “muqaddas ayol “ nomi sifatida ham talqin etadi. Aytishlaricha, bu masjid qadimda mavjud bo’lgan boshqa ibodatxona o’rnida qayta qurilgan va bugungi holatiga keltirilgan.<sup>27</sup>

Masjidning qadimiyligi uning joylashuvi , arxitektura uslubi va mahalliy aholi og’zaki tarixiy rivoyatlari orqali tasdiqlanadi . Odina masjidi Sharq me’morchilik an’analariga xos tarzda , mahalliy uslubda qurilgan uning asosiy qismini peshtoq, ibodat zali, minoracha, rivoqlar( ayvon ) tashkil qiladi. Peshtoq – masjidning asosiy kirish qismini tashkil etadi. U dekorativ g’ishtlar va naqshlar bilan bezatilgan bo’lib, ayrim joylarda Qur’on oyatlari va arabcha yozuvlar ko’rinadi . Ibodat zali to’rtburchak shaklda bo’lib , gumbaz bilan yopilgan . Zalning devorlarida minimalistik uslubda bezaklar mavjud. Icgki makon akustik jihatdan yaxshi ishlangan – imom ovozi zal bo’ylab baravar tarqaladi.

Masjidga tutash kichik minoracha mavjud bo’lib, u asosan azon aytish uchun ishlatilgan . Uning o’zgacha shakli voha masjidlari uchun xosdir. Masjidning ikki yonida rivoqlar – ochiq ayvonlar mavjud bo’lib ular yozgi ibodatlar yoki Qur’on ta’limi mashg’ulotlari uchun mo’ljallangan. Yog’och ustunlar nozik o’ymakorlik bilan ishlangan bo’lib , ular san’at nuqtayi nazaridan ham ahamiyatlidir.<sup>28</sup>

<sup>27</sup> O’zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi. Qashqadaryo viloyatidagi tarixiy obidalar ro’yxati. – Toshkent: 2023.

<sup>28</sup> Qodirov ,S . A. O’zbekiston me’moriy yodgorlilari tarixi . – Toshkent: Fan , 2017.

Tarixchi olimlardan Bo'riboy Ahmedov va Mixail Massonlar o'z asarlarida ushbu masjid qurilishini Amir Temur bilan bog'laydilar. Amir Temur 1385-1386- yillardagi yurishi paytida Samarqanddan kelishda Qarshining markazida ushbu masjidni bunyod ettirgan.<sup>29</sup>

Odina masjidi 1860- yillarning so'ngida to'ga tutilib vayron qilingan . Masjid gumbazi va minoralarining qoldiqlari 1914- yilgacha saqlangan . Sho'rolar davrida Odina masjidida turli idoralar joylashtirilib , keyinchalik omborxona sifatida ham foydalanilgan. 1938- yilga kelib masjidning atrofini baland devor bilan o'rab olingen va u mahbuslar saqlanadigan uyga aylantirilgan . Mahbuslar saqlanadigan uyning bitta kamerasiga yigirmaga yaqin odam qamalgan. Qarshi shahrining 2700 yilligi munosabati bilan 2004- 2005- yillarda mahbuslar saqlanadigan uy shaharning chetiga ko'chirilgan.<sup>30</sup> Odina jome masjidida asosan , juma kunlari, Ramazon va Qurbon hayitlarida namozlar o'qilgan, qolgan namozlar mahallalardagi masjidlarda ado etilgan.

Odina masjidining tomonlari 50 x40 metr mutanosiblikda qurilgan . Masjid ichidagi iborat joylari keng, baland, tepasi kichik gumbazli har- har joyda qalin qilib terilgan g'isht ustunlari bir biriga ravoqlar orqali ketgan , ana shunday o'nlab ravoqlar gumbazli xonadan o'tib gumbazli nomozgohga chiqilgan. Masjid g'arbida katta mehrob bo'lган . Mehrobning ravoqlari atrofiga Qur'oni Karimdan Oyatal Kursiy duosi oltin harflar bilan bitilgan .<sup>31</sup>

Tarixiy manbalarda Odina masjidi Buxorodagi me'moriy yodgorlik – Masjidi kalon nomi bilan tilga olinadi.

Xonaqohnning tashqi moyi gumbazi baland moviy gumbazi uzoqdan ko'zga tashlanadi. Faqat hajmi undan kichikroq bo'lib , mehrobi shimoliy qutbga nisbatan 250c daraja atrofida.

Odina masjidi 2020-yildan boshlab bosqichma bosqich restravratsiya qilinmoqda. Viloyat hokimligi va diniy tashkilotlar uni ziyoratgoh sifatida rivojlantirishni rejalashtirmoqda.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi. Qashqadaryo viloyatidagi tarixiy obidalar ro'yxati. – Toshkent: 2023.
2. Qodirov ,S . A. O'zbekiston me'moriy yodgorlilari tarixi . – Toshkent: Fan , 2017.
3. Poyon Ravshanov Qarshi tarixi Toshkent : Yangi asr avlodi nashriyoti , 2006–647- bet.
4. Nasriddinov K, Xujayorov U, Qarshi shahrining me'moriy yodgorliklari. Toshkent: Yangi Asr avlodi, 2011 – 136-bet.
5. Abdusattor Jumanazar. Nasaf. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti , 2007- 204- bet.

<sup>29</sup> Poyon Ravshanov. Qarshi tarixi . Toshkent : Yangi asr avlodi nashriyoti , 2006 – 647- bet.

<sup>30</sup> Nasriddinov K, Xujayorov U, Qarshi shahrining me'moriy yodgorliklari. Toshkent: Yangi Asr avlodi, 2011 – 136-bet.

<sup>31</sup> Abdusattor Jumanazar. Nasaf . Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti , 2007- 204- bet.